

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19727347>

**Abduraximov Ulug'bek Abdurashid o'g'li**

*Quruqlikdagi qo'shinlar instituti*

*Ofitser kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish*

*markazi katta o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Dunyoda ta'lim soxasiga zamonaviy bilim, ilg'or tajribalar, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosida bo'lajak pedagoglarning psixologik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqola bo'lajak pedagoglar psixologik kompetentligi muammosining fanda o'rganilishi masalalariga bag'ishlanadi.

### **Kalit so'zlar**

zamonaviy bilim, ilg'or tajriba, zamonaviy texnologiya, bo'lajak pedagog, psixologik kompetentlik.

Xalqaro miqyosda bo'lajak pedagoglarning kompetentlik darajasini rivojlantirish va baholash muhim ahamiyat kasb etib, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda pedagoglarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari kengaytirilmoqda. Shu nuqtai nazardan professional ta'lim pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta'lim shakllarini qo'llashning didaktik imkoniyatlarini va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Davlat taraqqiyotini ko'p jihatdan kadrlar masalasining qanday hal qilinganligi belgilab beradi. Shu bois jamiyat uchun kerakli kadrlarni tayyorlab kelishni ilk bosqichlaridan boshlab ularni kasbiy yo'naltirish, ularni o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishida, mavjud qobiliyatlari va kasbiy layoqatlarini to'g'ri baholashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa, aynan ta'lim oluvchilar bilan o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil etish va shaxs individual psixologik xususiyatlarini bilishni talab etadi. Mazkur talablar bo'lajak pedagoglarda nafaqat

kasbiy sifatlar balki psixologik kompetentligini shakllanganligini tadqiq etish taqozo etadi.

Bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi yoki uzluksiz ta'lim olish XXI-asrdagi tezkorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarin yegallashi, ta'limni raqamlashtirilishi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar oqibati bilan bog'liq.

Katta yoshlilar ta'limi jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri bu o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o'z o'rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o'qish-o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Bu yesa ta'lim jarayonida o'ziga xos differensial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o'qitish texnologiyalarini talab etadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni respublikada ta'limni modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur farmon bilan O'zbekiston Respublikasida ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etish vazifasi belgilab berildi [2].

Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish esa professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuvlar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini oshishi olib keladi. Bu jarayonda kasbiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va paradigmalarini o'rganish, malaka oshirishning muqobil shakllarni joriy qilishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, to'ldiruvchi va qo'shimcha ta'limga bo'lgan yehtiyojni qondirishga qaratilgan yehtiyojga asoslangan kurslarni, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish metodikalarini o'rganish nihoyatda zarur. [2].

Mamlakatimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz, qomusiy olimlarimiz yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni kasb-hunarga o'rgatish masalalari bo'yicha o'zlarining buyuk asarlarida qimmatli fikr mulohazalarni bildirib, bu borada nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatganlar.

Sharq mutafakkirlari ta'limotlarida o'g'il va qizlarga ta'lim- tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa

amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarni o'rganishga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, alloma kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelganini tan olgan.

Abu Nasr al Farobiy "Namunali ta'lim" risolasida ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialni yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib, Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko'p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o'zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e'tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi" [3].

Farobiy "Baxt - saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim [3].

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiya ta'limotining asosi komil insonni shakllantirish, bunda yoshlarga o'z vaqtida o'rinli ta'lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga yo'llash orqali baxt-saodatga erishtirish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berish g'oyasidan iborat.

Bugungi kunga kelib ham, allomalar tomonidan qoldirilgan ma'naviy meros o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Buyuk mutafakkirlarimiz, mashhur usta-hunarmandlarimiz yoshlarimizga o'rnak, ma'naviyat va g'urur manbai bo'lib xizmat qiladi. Eng asosiysi ular turli tarixiy-siyosiy, hayotiy shart-sharoitlarga qaramasdan ilm olishga va fanning turli sohalari bo'yicha asarlar qoldirishga harakat qilganlar.

XXI-asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli yemasligi, yendilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo'lgan yehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan didaktik, metodik, ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Sharq mutafakkirlari o'zlarining qimmatli ma'naviy merosi bilan komil inson shaxsini tarbiyalashda insonni kamolotga eltuvchi mehnatsevarlik, ochiqko'ngillik, rostgo'ylik, halollik va qadriyatlarga hurmat kabi xislatlariga e'tibor qaratganligini ko'ramiz.

2. Hozirgacha saqlanib qolayotgan qator me'moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san'ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me'morchilik), arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari namunalari – bularning barchasi buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar o'rganishga, yuksak iste'dod va qobiliyat sohibi bo'lishga oid bebaho manbalar qoldirganliklarini tasdiqlaydi.

3. Bugungi kunga kelib ham, allomalar tomonidan qoldirilgan ma'naviy meros o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, buyuk mutafakkirlarimiz, mashhur usta-hunarmandlarimizning faoliyati yoshlarimizga o'rnak, ma'naviyat va g'urur manbai bo'lib xizmat qiladi. Eng asosiysi ular turli tarixiy-siyosiy, hayotiy shart-sharoitlarga qaramasdan ilm olishga va fanning turli sohalari bo'yicha asarlar qoldirishga harakat qilganlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr. – T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. [www. http/lex.uz/ru/docs - 4500926](http://lex.uz/ru/docs-4500926)
3. Abu Nasr al Farobiy. "Baxt – saodatga erishuv to'g'risida". T., 1983.